“O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati ijroiya apparati
Marketing va sotishni tashkil etish
boshqarmasi boshlig‘ining funksional vazifalari

Respublika qishloq xo‘jalik korxonalarini texnikalarga bo‘lgan talabini o‘rganish bo‘yicha joylarda Jamiyat filiallari, jumladan, tumanlarga biriktirilgan marketologlari bilan birgalikda marketing izlanishlari olib borishni tashkillashtiradi va bajarilishini nazorat qiladi;

Har yilning 1-avgustdan kechiktirmasdan kelgusi yil uchun texnikalarga bo‘lgan talabni viloyatlardan yig‘ib olishni tashkillashtiradi va bajarilishini nazorat qiladi;

Tahlillar asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 2-noyabrdagi 424-sonli qarori asosida, Jamiyatning o‘z mablag‘lari evaziga hamda Ustav jamg‘armasi hisobiga olinadigan texnikalar rusumini aniqlaydi va Jamiyat rahbariyatiga taqdim etadi;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi maxsus jamg‘arma tomonidan manbalari tasdiqlangan va Jamiyat o‘z mablag‘lari evaziga oladigan texnikalar uchun Respublikadagi qishloq xo‘jalik texnikalarini ishlab chiqaruvchi korxonalariga buyurtmalarni joylashtirish bo‘yicha takliflar kiritadi va uni tashkillashtiradi;

Viloyatlar filiallaridan Jamiyatga kelib kelib tushgan avans to‘lovlari asosida texnikalarni rasmiylashtirishni tashkillashtiradi va berib yuborilgan texnikalar to‘g‘risidagi tezkor ma’lumotni Jamiyat rahbariyatga taqdim etadi;

Tuzilgan shartnomalar asosida lizing oluvchilardan Jamiyatga kelib tushgan avans to‘lovlari miqdori, texnika uchun sug‘urta polisi va filial ekspert kengashi qarori mavjudligi hamda u asosida viloyatga taqsimlangan traktor va qishloq xo‘jaligi texnikasini ishlab chiqaruvchidan olib berilishi bo‘yicha taklif kiritadi va uni bajarilishini nazorat qiladi;

Qishloq xo‘jaligi texnikasini ishlab chiqaruvchi zavodlar va yetkazib beruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarayotgan texnikalarni to‘ridan-to‘g‘ri sotishni tashkil etadi;

Yil yakuni bo‘yicha, yil boshida texniklarga tushgan talablarga nisbatan yil oxirida olingan texnikalar tahlilini qiladi va kelgusi yil uchun prognozlarni shakllantirishda mazkur ma’lumotlarni e’tiborga oladi;

Filiallarga amaliy yordam ko‘rsatish va ishlab chiqarish jarayonida paydo bo‘lgan masalalarni o‘rganib chiqish maqsadida xizmat safariga chiqadi;

Ish yuritish va ijro intizomini amaldagi qonunchilikka asoslangan me’yoriy hujjatlar asosida tashkil qiladi;

Jamiyatga kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek “O‘zagrolizing” AJ qaror va buyruqlarining bajarilishi bo‘yicha tegishli hujjatlar loyihalarini Rahbar rezolyutsiyasida ko‘rsatilgan muddatda tayyorlashini ta’minlaydi va kelishish uchun rahbariyatgataqdim qiladi.